

**MELIORATIV OBEKTLARNING TURLARI VA ULARDA AMALGA  
OSHIRILADIGAN MELIORATIV TADBIRLAR ORQALI  
ERISHILADIGAN NATIJALAR**

*Maxmudov Dostonbek*

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti o'qituvchisi*

**TYPES OF MELIORATIVE OBJECTS AND RESULTS ACHIEVED  
THROUGH MELIORATIVE MEASURES IMPLEMENTED IN THEM**

*Makhmudov Dostonbek*

*Teacher of Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies*

**Annotatsiya:** Maqolani yozish davomida meliorativ obektlarning turlari hamda yerkarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha bajarilayotgan ishlar natijasini taxlil qilishdan iborat.

**Annotation:** During the writing of the article, it is necessary to analyze the types of land reclamation objects and the results of the works on land reclamation improvement.

**Kalit so'zlar:** *Meliorativ quduq, meliorativ nasos stantsiyasi, yopiq zovur, ochiq zovur, tizimli ta'mirlash va tiklash, qurish va rekonstruktsiya qilish.*

**Keywords:** *Meliorative well, meliorative pumping station, closed cylinder, open cylinder, systematic repair and reconstruction, construction and reconstruction.*

**Kirish:** Oziq ovqat xavfsizligini ta'minlash dolzarb bo'lib turgan vaqtida sug'oriladigan maydonlardan unumli foydalanish hamda yerkarni meliorativ holatini yaxshilash va sifatli va mo'l xosil olish xozirda dolzarb masalalardan biri xisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 yanvardagi "2020-2022 yillarda O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4565-

sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida. Ekin maydonlarida melioratsiya ishlari bajariladi.

**Meliorativ ob'ektlar** - kollektor-drenaj va yuza tashlama suvlarni to'plash hamda ularni sug'oriladigan yerdan tashqariga chiqarib tashlashga ko'maklashadigan, kollektorlar va kollektor-drenaj tarmog'ini (inshootlar bilan birga), vertikal drenaj quduqlarini, meliorativ nasos stantsiyalari va kuzatuv tarmog'ini o'z ichiga oladigan suv xo'jaligi ob'ektlari kiradi.

**ochiq drenaj** - drenaj suvlarini to'plash va ularni sug'oriladigan maydon uchastkasidan tashqariga chiqarib tashlashga mo'ljallangan kanal (inshootlar bilan birga);

**yopiq gorizontal drenaj** - drenaj suvlarini to'plashga va sug'oriladigan maydon uchastkasidan tashqariga chiqarib tashlashga mo'ljallangan yopiq quvurli tarmoqlar tizimi;

**vertikal drenaj qudug'i** - yer osti bosimli va sizot suvlarni chiqarishga xizmat qiladigan, suv qabul qilgich, elektr nasos, quvurlar, shuningdek boshqarish stantsiyasi bilan jihozlangan hamda xizmat ko'rsatilayotgan maydonning meliorativ holatini yaxshilash uchun barpo etiladigan quduqdan iborat bo'lган inshoot;

**kollektor** - asosan drenaj tarmog'idan drenaj va tashlama suvlarni qabul qilish va uzatishga, shuningdek ularni sug'oriladigan hudud tashqarisiga chiqarib tashlashga mo'ljallangan kanal (inshootlar bilan birga). Xizmat ko'rsatish hududi bo'yicha kollektorlar magistral (viloyatlararo), tumanlararo kollektorlar va xo'jaliklararo kollektor-drenaj tarmoqlariga bo'linadi;

**magistral (viloyatlararo) kollektor** - bir viloyatdan ortiq hududni kesib o'tadigan ochiq kollektor;

**tumanlararo kollektor** - bir viloyat chegarasida bittadan ortiq tuman hududini kesib o'tadigan ochiq kollektor;

**xo'jaliklararo kollektor-drenaj tarmog'i** - bir tuman hududida joylashgan ochiq va yopiq kollektorlar va drenaj tarmog'i;

**meliorativ nasos stantsiyasi (agregat)** - drenaj-tashlama suvlarni olish va chiqarib tashlash joyiga ko'tarish yo'li bilan kollektorning loyihadagi suv o'tkazish qobiliyatini ta'minlaydigan mashinali suv ko'tarish gidrotexnik inshootlar majmui;

**kuzatuv tarmog'i** - sug'oriladigan yerlarda sizot suvlar sathini o'lchash va ularning sifatini o'rganish maqsadida namuna olish uchun barpo etiladigan kuzatuv quduqlari tarmog'i;

### **Meliorativ obektlarda amalga oshiriladigan tadbirlarning turlari to'g'risida ma'lumot**

**Meliorativ ob'ektlarni ta'mirlash va tiklash** - meliorativ ob'ektlarning loyihaviy parametrlarini ta'minlashga, shu jumladan kollektor o'zanlarini cho'kindilar, o'tlar va butalardan tozalashga, ulardagi inshootlarni va yon qiyaliklaridagi ayrim yemirilishlarni ta'mirlashga, yopiq gorizontal drenajni ta'mirlash, yuvishga hamda asbob-uskunalar, inshootlar va boshqa meliorativ ob'ektlarni ta'mirlash hamda ularning tez eskiradigan ayrim qismlari va uzellarini almashtirishga mo'ljallangan ishlar;

**Meliorativ ob'ektlarni joriy ta'mirlash** - meliorativ ob'ektlarni ish holatida saqlashga mo'ljallangan, muntazam ravishda amalga oshiriladigan ta'mirlash ishlari. Bunda foydalilaniladigan moddiy-texnika resurslari (temirbeton, metall konstruktsiya, tsement, metall va hokazolar), ehtiyyot qismlar va asbob-uskunalar qiymati ta'mirlash-tiklash ishlari jami qiymatining 20 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak;

**Meliorativ ob'ektlarni mukammal ta'mirlash** - jarayon davomida ob'ekt yoki uning ayrim elementlarini to'liq yoki qisman tiklash, inshootlarning eskirgan konstruktsiyalari va asbob-uskunalarini almashtirish yoki ularni mustahkamroq va tejamlilari bilan yangilashga doir ishlar. Bunda foydalilaniladigan moddiy-texnika resurslari, ehtiyyot qismlar va asbob-uskunalar qiymati ta'mirlash-tiklash ishlari jami qiymatining 20 foizidan ortiqliur;

**Meliorativ ob'ektlarda avariya-tiklash va ta'mirlash** - avariya natijasida kelib chiqqan barcha shikastlanishlarni shoshilinch tartibda bartaraf etish ishlari;

**Meliorativ ob'ektlarni rekonstruktsiya qilish va qurish** - meliorativ ob'ektlarni to'liq yoki qisman qayta qurish va qurish. Ob'ekt rekonstruktsiya qilingandan keyin uning dastlabki loyiha parametrlari va inshootlar tarkibi yangi loyihaga muvofiq qisman yoki to'liq o'zgarishi mumkin;

### **Samaradorligi**

2023 yil Davlat dasturiga asosan 13 dona tizimli ta'mirlash va tiklash, 5 dona qurish va rekonstruktsiya qilish ishlari loyihalari amalga oshirildi. Tumanlardan berilgan takliflar yer osti sizot suvlari, sho'rланish, meliorativ barqarorlashgan maydonlar taxlil qilinib ma'lumot tayyorlandi. O'rta va kuchli sho'rlangan maydonlarni kamayishi; Baliqchi, Bo'z, Ulug'nor tumanlarida sho'rlangan maydonlarni 608 hektarga, viloyat tumalarida sizot suvlar satxi 2 metrgacha bo'lgan maydonlarni kamayishi 8262 hektarga, meliorativ barqarorligi saqlangan maydonlar 12846 hektarni tashkil qilib, jami 21715 hektar maydonni meliorativ xolati yaxshilandi.

Viloyat tumanlarida 15 dona vertikal drenaj quduqlarni ta'mirlash va tiklash natijasida 480 hektar maydonlar yaxshilandi, sizot suvlar 2 metrgacha bo'lgan maydonlarni kamayishi 271 hektarga, meliorativ barqarorligi saqlangan maydonlar 209 hektar bo'lishiga erishildi. Hamda 32 hektar ekin maydonlariga xizmat qiluvchi 1 dona vertikal drenaj quduq qurish va rekonstruktsiya qilish orqali, sizot suvlar 2 metrgacha bo'lgan maydonlarni 20 hektarga kamaytirish va 12 hektar ekin maydonlarini meliorativ barqarorligi saqlanashga erishildi.

### **Xulosa**

**Muammo** - Viloyatda jami 7620.9 km uzunlikdagi zakan - zovur tarmoqlari mavjud bo'lib, shundan davlat dasturi doirasida har yili o'rtacha 800-900 km atrofida tozalanmoqda. Barcha zakan-zovur tarmoqlari tozalash davri 8-9 yilga to'g'ri kelmoqda. Buning natijasida davlat dasturiga kirmagan

xududlardagi fermer xo'jaliklarining ekin maydonlarida sizot suvlar sathi ko'tarilib, ularning asosli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.

**Taklif** - Meliorativ ekspeditsiya hisobida mexanizatsiyalashgan meliorativ guruh tashkil qilib, guruhnasi ekskavator, mini ekskavator, (belarus) buldozer va yopiq-yotiq drenajlarni yuvish agregatlari bilan ta'minlash orqali yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish hamda fermerlar ekin maydonlarining meliorativ xolatini yaxshilash.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 yanvardagi "2020-2022 yillarda O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4565-sonli qarori
2. S.Shaxobov, A.Qarshiyev Dehqonchilik va melioratsiya Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, 2014
3. Andijon viloyati Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Meliorativ ekspeditsiyasining yillik hisobot ma'lumotlari
4. Xamidov M.X., Urazkeldiev A.B., Botirov Sh.Ch. Meliorasiya yerkarni rekultivasiyalash Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti 2012
5. H.A.Axmedov Sug'orish melioratsiyasi "O'qituvchi" nashriyoti toshkent 1977
6. Xamidov Muhammadxon Xamidovich, Mamataliyev Adxam Boymirzayevich Irrigatsiya va melioratsiya "Book Media Plus" Toshkent 2019
7. S.T.Vafoyev B.S.Mirzayev Qurilish va melioratsiya mashinalarini loyihalash asoslari "BOSMA" MChJ Tashkent 2018
8. **Internet - saytlar**  
<https://ru.rivulis.com/>  
<https://ru.wikipedia.org/wiki/Oroshenie>  
<https://lex.uz/docs/-6333021>